




QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TURISTIK- REKREATIONSALOHİYATI VA UNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Qaljanbaev Aqilbek Serikbaevich

Berdaq Karakalpak State University, Faculty of Geography and
Natural Resources

Email: aqilbekqaljanbaev654@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21701914>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 12-iyul 2026 yil
Ma'qullandi: 15-iyul 2026 yil
Nashr qilindi: 30-iyul 2026 yil

KEY WORDS

uristik-rekreatsion salohiyat, ekologik turizm, Orol dengizi, Mo'ynoq, Ustyurt platosi, madaniy meros, barqaror rivojlanish, Qoraqalpog'iston.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasining turistik-rekreatsion salohiyati kompleks tarzda tahlil qilinadi. Mintaqaning noyob tabiiy-geografik landshaftlari, Orol dengizi ekologik inqirozi bilan bog'liq obyektlari, qadimgi Xorazm yodgorliklari hamda madaniy merosining turizmni rivojlantirishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, hududda turizmni barqaror rivojlantirish yo'lidagi muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kirish

Hozirgi kunda turizm dunyo iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, ko'plab mamlakatlar uchun barqaror iqtisodiy o'sish, aholi bandligini ta'minlash va hududlarni rivojlantirishning muhim omiliga aylangan. O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda turizm sohasini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4861-son Farmoni va keyingi yillarda qabul qilingan strategik hujjatlar sohani tubdan isloh qilish uchun huquqiy asos yaratdi.

Mamlakatimizning turizm salohiyati juda katta bo'lib, uning muhim tarkibiy qismlaridan birini Qoraqalpog'iston Respublikasi tashkil etadi. Qoraqalpog'iston O'zbekistonning shimoli-g'arbida joylashgan bo'lib, hududining maydoni 166,6 ming kv. kilometrni tashkil etadi va bu mamlakat umumiy hududining qariyb 37 foiziga teng. Mintaqa o'zining betakror tabiiy landshaftlari, boy tarixiy-madaniy merosi va noyob ekologik obyektlari bilan ajralib turadi. Ayni paytda ushbu ulkan salohiyat hozircha to'liq o'zlashtirilmagan bo'lib, uni ilmiy asosda baholash va barqaror rivojlantirish yo'llarini belgilash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Turizmning hududlar iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishdagi o'rni ayniqsa Orolbo'yi kabi ekologik jihatdan og'ir mintaqalar uchun katta ahamiyat kasb etadi. An'anaviy tarmoqlar — qishloq va baliqchilik xo'jaligi ekologik inqiroz tufayli izdan chiqqan bir sharoitda, turizm mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratish, kichik biznes va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish hamda mintaqaga qo'shimcha daromad oqimini jalb etishning muhim manbaiga aylanishi mumkin. Aynan shu jihat mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi — Qoraqalpog'iston Respublikasining turistik-rekreatsion salohiyatini kompleks baholash, uni rivojlantirishdagi mavjud muammolarni aniqlash hamda hududda turizmni barqaror rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida ilmiy manbalarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, statistik va SWOT-tahlil usullaridan foydalanildi.

1. Qoraqalpog'istonning tabiiy-rekreatsion resurslari

Turistik-rekreatsion salohiyat deganda muayyan hududda turizm va dam olishni tashkil etish uchun mavjud bo'lgan tabiiy, tarixiy-madaniy hamda ijtimoiy-iqtisodiy resurslarning yig'indisi tushuniladi. Qoraqalpog'iston bu jihatdan nihoyatda boy va o'ziga xos mintaqa hisoblanadi. Uning tabiiy-rekreatsion resurslari orasida eng e'tiborga molik obyekt — Orol dengizi va u bilan bog'liq hududlardir.

Geografik jihatdan Qoraqalpog'iston Turon pasttekisligining bir qismini egallab, uning hududida cho'l, chala cho'l va to'qay landshaftlari o'zaro uyg'unlashgan. Iqlimi keskin kontinental bo'lib, yozi issiq va quruq, qishi sovuq keladi. Amudaryo mintaqaning asosiy suv arteriyasi hisoblanadi. Ana shunday xilma-xil tabiiy sharoit bir necha turdagi rekreatsion faoliyat uchun zamin yaratadi. Ushbu landshaftlarning ko'pchiligi antropogen ta'sirdan nisbatan xoli bo'lib, o'zining tabiiy holatini saqlab qolgani ularning turistik qadrini yanada oshiradi.

Orol dengizi XX asrning ikkinchi yarmiga qadar dunyodagi eng yirik ichki suv havzalaridan biri bo'lgan. Biroq Amudaryo va Sirdaryo suvlarining qishloq xo'jaligi ehtiyojlariga haddan tashqari jalb etilishi natijasida dengiz qurib bordi va uning o'rnida Orolqum (Aralkum) sahrosi paydo bo'ldi. Ushbu ekologik falokat mintaqaga katta zarar yetkazgan bo'lsa-da, ayni vaqtda u dunyoda kam uchraydigan "ekologik falokat turizmi" yoki "qayg'u turizmi" (dark tourism) uchun noyob makon sifatida ham e'tirof etilmoqda. Xususan, sobiq baliqchilik porti bo'lgan Mo'ynoq shahri bugungi kunda "kemalar qabristoni" bilan jahonga tanilgan. Bir vaqtlar suv ostida bo'lgan hudud hozirda dengiz sohilidan 150 kilometrda ortiq masofada joylashgan bo'lib, cho'l qumlari ustida zang bosgan kemalar sayyohlarni o'ziga jalb etadi.

Mintaqaning yana bir noyob tabiiy obyekti — Ustyurt platosidir. Bu ulkan cho'l platosi o'zining tik jarliklari (chinklari), qadimgi karvon yo'llari qoldiqlari va o'ziga xos hayvonot dunyosi bilan ajralib turadi. Ustyurt platosida joylashgan Saygachiy davlat qo'riqxonasi noyob sayg'oq antilopalari va boshqa nodir turlarni muhofaza qilishga xizmat qiladi. Bu yerda ekologik, ilmiy-ekspeditsion va ekstremal turizmni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Amudaryoning quyi oqimida joylashgan Badayto'qay davlat qo'riqxonasi mintaqaning yana bir tabiiy boyligidir. Bu yerda noyob to'qay ekotizimi saqlanib qolgan bo'lib, qo'riqxona Buxoro bug'usi (xongul), yovvoyi cho'chqa, qirg'ovul kabi hayvonlar hamda ko'plab qushlar turlarining makonidir. Shuningdek, Sudochye ko'llar tizimi suvda suzuvchi va ko'chib yuruvchi qushlarning muhim yashash va oraliq to'xtash joyi bo'lib, ornitologik turizm (qush kuzatuvchilik) uchun katta ahamiyatga ega.

2. Tarixiy-madaniy meros obyektlari

Qoraqalpog'iston hududi qadimgi Xorazm sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo'lib, bu yerda mil. avv. birinchi ming yillikka oid ko'plab arxeologik yodgorliklar saqlanib qolgan. Amudaryoning qadimgi o'zanlari bo'ylab joylashgan qadimgi Xorazm qal'alari — Tuproqqal'a, Ayozqal'a, Qirqqiz qal'a, Janbasqal'a va Gyaurlal'a mintaqaning eng qimmatli tarixiy-madaniy obyektlari hisoblanadi. Ushbu qal'alar o'zining monumental me'morchiligi va boy tarixi bilan madaniy-tarixiy hamda arxeologik turizmni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Mintaqaning muhim ziyoratgoh va tarixiy obyektlaridan biri — Xo'jayli shahri yaqinida joylashgan Mizdahkan nekropolidir. Bu yerda mashhur Mazlumxon Sulu maqbarasi, Xalifa

Yerejep maqbarasi hamda xalq orasida “jahon soati” deb nomlanuvchi qadimiy inshoot joylashgan. Zardushtiylik davriga oid Chilpiq daxmasi (dahma) esa mintaqaning eng qadimgi diniy-ma'naviy yodgorliklaridan biri sanaladi va u Amudaryo bo'yidagi tepalik ustida balandlab turadi.

Qoraqalpog'iston poytaxti Nukus shahrida joylashgan I.V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi mintaqaning haqiqiy madaniy gavharidir. Ushbu muzey dunyodagi rus avangard san'ati asarlarining eng yirik to'plamlaridan biriga ega bo'lib, shu bois uni ko'pincha “Cho'ldagi Luvr” deb atashadi. Muzeyda saqlanayotgan o'n minglab noyob eksponatlar har yili dunyoning turli burchaklaridan minglab sayyohlarni Nukusga jalb etadi.

Moddiy meros bilan bir qatorda mintaqaning nomoddiy madaniy merosi ham katta turistik qadriyatga ega. Qoraqalpoq xalqining boy og'zaki ijodi, jumladan “Qirq qiz”, “Alpomish” kabi dostonlari, milliy musiqasi va baxshichilik san'ati, an'anaviy hunarmandchiligi — kigiz bosish, kashtachilik, zargarlik hamda o'ziga xos milliy taomlari sayyohlar uchun o'ziga xos jozibaga ega. Ushbu bo'yliklar etnografik va gastronomik turizmni rivojlantirish, shuningdek, mahalliy hunarmandchilik mahsulotlarini turistik suvenir sifatida targ'ib qilish orqali qo'shimcha daromad manbaiga aylantirilishi mumkin. Bunda mahalliy aholining faol ishtiroki ta'minlansa, turizm daromadlari bevosita jamoalarga yetib boradi.

Yuqorida keltirilgan obyektlarni turizm turlari bo'yicha tasniflash mintaqaning salohiyatini yaqqolroq tasavvur etish imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval

Qoraqalpog'istonning asosiy turistik obyektlari va ularning tasnifi

Turistik obyekt	Joylashuvi	Turizm turi
Mo'ynoq — “kemalar qabristoni”	Mo'ynoq tumani	Ekologik, fojiaaviy meros turizmi
Orol dengizi va Orolqum sahrosi	Shimoliy hudud	Ekologik, ekstremal turizm
Ustyurt platosi va chinklari	G'arbiy hudud	Ekstremal, ilmiy turizm
Badayto'qay qo'riqxonasi	Amudaryo bo'yi	Ekologik, ilmiy turizm
Qadimgi Xorazm qal'alari	Amudaryo qadimgi o'zani	Madaniy-tarixiy, arxeologik
Mizdahkan nekropoli	Xo'jayli tumani	Ziyorat, madaniy-tarixiy
Chilpiq daxmasi	Amudaryo bo'yi	Madaniy-tarixiy
Savitskiy nomidagi san'at muzeyi	Nukus shahri	Madaniy, ilmiy-ma'rifiy

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

3. Rivojlantirish mumkin bo'lgan turizm turlari

Mintaqaning yuqorida ko'rsatilgan resurs bazasi bir necha turdagi turizmni rivojlantirish imkonini beradi. Birinchidan, ekologik turizm Qoraqalpog'iston uchun eng istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Orol dengizi fojiasi, qo'riqxonalar va noyob cho'l landshaftlari tabiat va ekologiyaga qiziquvchi sayyohlar uchun jozibador. Ikkinchidan, ekstremal va sarguzasht turizmi — Ustyurt platosidagi jip-safarilar, cho'l bo'ylab sayohatlar va quruq dengiz tubidagi ekspeditsiyalar orqali rivojlantirilishi mumkin.

Uchinchidan, madaniy-tarixiy va arxeologik turizm qadimgi qal'alar va yodgorliklar asosida tashkil etiladi. To'rtinchidan, etnografik turizm qoraqalpoq xalqining an'analari, urf-odatlar va hunarmandchiligi bilan tanishtirishga qaratiladi. Beshinchidan, ilmiy-ekspeditsion turizm arxeologlar, ekologlar va tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, u xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi.

Bulardan tashqari, mintaqada sog'lomlashtirish (salomatlik) turizmini rivojlantirish imkoniyatlari ham mavjud. Qoraqalpog'istonning quruq va shifobaxsh iqlimi, mineral suvlari

hamda tabiiy sharoiti ayrim kasalliklarni oldini olish va davolashda qo'l keladi. Shuningdek, cho'l va quruq dengiz tubining o'ziga xos geologik tuzilishi geoturizm (ilmiy-tabiiy turizm) uchun ham qiziqish uyg'otadi. Bu yo'nalishlar mintaqa turistik mahsulotini yanada boyitib, turli toifadagi sayyohlar ehtiyojini qondirish imkonini beradi.

Alohida ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda Mo'ynoqda o'tkazilib kelinayotgan "Stihiya" xalqaro elektron musiqa festivali mintaqaga zamonaviy va yoshlarbop turizm yo'nalishini olib kirdi. Ushbu festival Orol fojiasiga jahon jamoatchiligining e'tiborini qaratish bilan birga, hududning turistik brendini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa noan'anaviy — ijodiy va tadbir (event) turizmini rivojlantirish uchun ham katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

4. Turizmni barqaror rivojlantirish: muammolar va istiqbollar

Qoraqalpog'istonda turizmni rivojlantirishning ulkan salohiyatiga qaramay, ushbu jarayonda bir qator muammolar mavjud. Ularning eng muhimlari quyidagilardan iborat: turistik infratuzilmaning (zamonaviy mehmonxonalar, yo'llar, transport va servis xizmatlari) yetarli darajada rivojlanmaganligi; obyektlarning markazdan uzoqda joylashganligi va yetib borish qiyinligi; mintaqaning umumiy ekologik holati; malakali kadrlar va gid-tarjimonlar tanqisligi; turistik mahsulotni xalqaro bozorda targ'ib qilish va brending tizimining zaifligi; hamda turizmning yaqqol namoyon bo'ladigan mavsumiyliги.

Ushbu muammolarni yaxlit tahlil qilish uchun quyida mintaq turizmining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari hamda tahdidlarini aks ettiruvchi SWOT-tahlil keltirilgan (2-jadval).

2-jadval

Qoraqalpog'iston turizmini rivojlantirishning SWOT-tahlili

Kuchli tomonlar (S)	Zaif tomonlar (W)
• Noyob va betakror tabiiy obyektlar (Orol, Ustyurt); • Boy tarixiy-madaniy meros va qadimgi qal'alar; • Jahonga mashhur Savitskiy muzeyi; • Davlat siyosatida turizmga ustuvor e'tibor.	• Rivojlanmagan infratuzilma va logistika; • Obyektlarning uzoqligi va yetib borish qiyinligi; • Malakali kadrlar tanqisligi; • Marketing va brendingning zaifligi.
Imkoniyatlar (O)	Tahdidlar (T)
• Ekologik va sarguzasht turizmiga jahon qiziqishi; • Davlat-xususiy sheriklik va investitsiyalar; • Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik; • Raqamli marketing imkoniyatlari.	• Mintaqaning murakkab ekologik holati; • Iqlim o'zgarishi va cho'llanish jarayoni; • Raqobatdosh hududlarning kuchayishi; • Global inqirozlar va mavsumiylik.

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi tahlildan ko'rinib turibdiki, mintaq turizmini barqaror rivojlantirish uchun tizimli yondashuv talab etiladi. Barqaror rivojlanish tamoyillariga ko'ra, turizmni rivojlantirish jarayoni tabiiy muhitni asrash, mahalliy aholi manfaatlarini hisobga olish va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash o'rtasidagi muvozanatga asoslanishi lozim.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, hatto ekologik falokat yoki og'ir tabiiy sharoitga ega hududlar ham to'g'ri yondashuv asosida jozibador turistik makonlarga aylantirilishi mumkin. Masalan, O'lik dengiz sohillari, Islandiyaning vulqonli va cho'l landshaftlari yoxud ayrim sanoat falokati yuz bergan hududlar bugungi kunda millionlab sayyohlarni qabul qilmoqda. Bu tajriba Orolbo'yi uchun ham qo'llanilishi mumkinligini ko'rsatadi: mintaqaning noyoblighi

va “boshqa hech qayerda uchramaydigan manzara” omili to'g'ri marketing orqali kuchli raqobat ustunligiga aylantirilishi mumkin.

So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Orolbo'yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik trust jamg'armasi tashkil etilishi, hududda daraxtzorlar barpo etish (Orolqumda saksovul o'tqazish) hamda ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar mintaqaning umumiy holatini yaxshilashga qaratilgan. Ushbu chora-tadbirlar bilvosita turizmni rivojlantirish uchun ham qulay shart-sharoit yaratadi.

Alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masalalardan biri — mintaqaning transport-logistika jihatidan yetib borish imkoniyatini yaxshilashdir. Nukus xalqaro aeroporti va temir yo'l tarmog'i imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ichki aviaqatnovlar va turistik marshrutlarni tashkil etish sayyohlar oqimini ko'paytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish — onlayn bron qilish tizimlari, mobil ilovalar, virtual sayohatlar va ijtimoiy tarmoqlarda faol targ'ibot — mintaqa turistik mahsulotini global bozorga chiqarishning eng samarali vositalaridan biriga aylanmoqda. “Aqlli turizm” (smart tourism) tamoyillarini tatbiq etish sayyohlarga qulaylik yaratish bilan birga, turistik oqimni tahlil qilish va boshqarish imkonini ham beradi.

Turizmni barqaror rivojlantirishda ekologik muvozanatni saqlash masalasi markaziy o'rin tutadi. Sayyohlar oqimining ortishi qo'riqxonalar va noyob tabiiy obyektlarga ortiqcha yuklama tushirmasligi uchun ruxsat etilgan rekreatsion sig'im me'yorlarini belgilash, ekologik ta'lim-tarbiyani kuchaytirish hamda “iz qoldirmaslik” tamoyiliga asoslangan mas'uliyatli turizmni targ'ib qilish zarur. Faqat shu yo'l bilan mintaqaning tabiiy boyliklari kelajak avlodlar uchun ham saqlanib qoladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Qoraqalpog'istonda turizmni barqaror rivojlantirish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- turistik infratuzilmani, birinchi navbatda yo'l-transport tarmog'i va zamonaviy mehmonxonalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish;
- ekologik va sarguzasht turizmi bo'yicha maxsus marshrutlar hamda milliy standartlarga mos glamping va eko-maskanlar tashkil etish;
- davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiyalarni jalb qilish va soliq imtiyozlarini joriy etish;
- sohaga malakali kadrlar, gid va tarjimonlarni tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish;
- “Orol” va “Ustyurt” turistik brendlarini shakllantirish hamda raqamli marketing vositalari orqali targ'ib qilish;
- xalqaro tashkilotlar va xorijiy sheriklar bilan ilmiy-turistik hamkorlikni kengaytirish;
- mahalliy aholini turizm xizmatlariga jalb etish orqali ularning daromadlari va bandligini oshirish.

Ushbu chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi bir qator ijobiy natijalarga olib kelishi kutiladi. Jumladan, mintaqaga keladigan ichki va tashqi sayyohlar oqimining ortishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi hamda mehmonxona, transport, umumiy ovqatlanish va hunarmandchilik kabi turdosh sohalarning jonlanishi kutiladi. Turizmdan tushadigan daromadlar mahalliy byudjetni to'ldirishga va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Eng muhimi, turizmning barqaror asosda rivojlanishi mintaqaning ekologik muammolariga jahon jamoatchiligi e'tiborini jalb etib, Orolbo'yini tiklashga qaratilgan sa'y-harakatlarni yanada kuchaytiradi.

Xulosa

Qilingan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Qoraqalpog'iston Respublikasi turistik-rekreatsion salohiyati jihatidan nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo miqyosida noyob mintaqalardan biri hisoblanadi. Uning tabiiy boyliklari — Orol dengizi, Ustyurt platosi, qo'riqxonalari hamda tarixiy-madaniy merosi — Xorazm qal'alari, Mizdahkan nekropoli va

Savitskiy muzeyi turizmning turli yo'nalishlarini rivojlantirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mavjud salohiyatni to'liq ro'yobga chiqarish uchun infratuzilmani rivojlantirish, kadrlar salohiyatini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish va samarali marketing tizimini shakllantirish zarur. Turizmni barqaror rivojlantirish tamoyillariga rioya qilingan holda amalga oshiriladigan tizimli chora-tadbirlar nafaqat mintaqa iqtisodiyotini jonlantiradi, balki Orolbo'yi aholisining turmush darajasini yaxshilash va hududning ekologik holatini barqarorlashtirishga ham xizmat qiladi. Kelgusi tadqiqotlarda mintaq bo'yicha turistik oqim dinamikasini statistik jihatdan chuqur o'rganish va aniq marshrutlar iqtisodiy samaradorligini baholash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4861-son Farmoni. – Toshkent, 2016-yil 2-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5611-son Farmoni. – Toshkent, 2019-yil 5-yanvar.
3. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2019-yil 18-iyul, № O'RQ-549.
4. Baxriddinov B.E., Toshov M.J. Turizm asoslari: darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019. – 320 b.
5. Ubaydullayev A.M. Ekologik turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2020. – № 4. – B. 112–120.
6. Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi ma'lumotlari. – URL: <https://karstat.uz>
7. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi ma'lumotlari. – URL: <https://uzbektourism.uz>
8. United Nations Multi-Partner Human Security Trust Fund for the Aral Sea Region. – URL: <https://www.un.org>